

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-5/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2023**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Таҳрир хайати:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*  
*Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.*  
*Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,*  
*т.ф.д., проф.*  
*Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.*  
*Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.*  
*Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.*  
*Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.*  
*Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.*  
*Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.*  
*Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.*  
*Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.*  
*Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.*  
*Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.*  
*Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.*  
*Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.*  
*Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.*  
*Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.*  
*Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc*  
*Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.*  
*Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.*  
*Ламерс Жон, к/х.ф.д., проф.*  
*Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.*  
*Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.*  
*Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.*  
*Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.*

*Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.*  
*Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.*  
*Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.*  
*Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,*  
*проф.*  
*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*  
*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*  
*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*  
*Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.*  
*Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.*  
*Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.*  
*Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.*  
*Сотилов Гойипназар, к/х.ф.д., проф.*  
*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,*  
*б.ф.д., академик*  
*Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.*  
*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*  
*Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.*  
*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*  
*Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.*  
*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*  
*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*  
*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*  
*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*  
*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*  
*Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5/4 (101), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 294 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

**МУНДАРИЖА**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАҲЛАРИ**

<b>Abatov D.</b> Qashqadaryo xalq dostonlaridagi ba'zi onomastik birliklar tadqiqi	5
<b>Abdullayeva G.</b> O'zbek tilida hurmat kategoriyasi	9
<b>Abulova Z.Z.</b> Characteristics of anthropocentrism in modern knowledge	11
<b>Abduraximova D.F.</b> Badiiy matnlar tarjimasida frazeologizmlarning tarjima muammolari	14
<b>Adilova S., Ergasheva G.</b> Andragogikada o'zbek tili bo'yicha lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirish xususida	16
<b>Alibekova R.X., Ashirmatova M.J.</b> Rus va o'zbek tillarida tezaurus leksikografiyasi va terminologiyasi tizimli ma'lumotlar bazasi	19
<b>Almatova Sh.</b> Abdulla Qahhor asarlarida turli xil narsa va predmetlarga o'xshatish	21
<b>Aminova K.E., Begmatova S.M.</b> Conceptualization of the world in the linguocultural aspect	23
<b>Artikova Z.Z.</b> 把 "bā" donabay nom hisob so'zining paydo bo'lish omillari	26
<b>Ashirmatova M., Burxonova G.</b> Qishloq xo'jaligida ruscha-o'zbekcha elektron tezaurusni rivojlantirishning uslubiy jihatlari	28
<b>Avaznazarov O.R.</b> "Hayrat ul-abror" dostoni "basmala"si xususida	30
<b>Babajanova Ya., Obidova L.</b> Indirect and direct translation: the question of originality and adequacy	33
<b>Bakhronova Z.R.</b> Stylistic devices in the work of Khaled Hosseini	35
<b>Baxranova D.U.</b> Koreys frazeologizmlarini o'zbek tiliga tarjima qilish usullari va somatik frazeologizmlarni tarjima qilishdagi muammolar	38
<b>Boymatova D.B.</b> Aksiologik bahoning lingvomadaniy xususiyatlari	41
<b>Djumaniyazova E.K.</b> Terminological words in the language for special purposes	43
<b>Djurayev M.K.</b> Matnni avtomatik qayta ishlashda til birliklarining mosligini o'rganish	45
<b>Elmuratov R.</b> "Hotamtoy" rivoyati syujeti va uning turk folkloridagi epik ifodalari	48
<b>Ergashova R.T.</b> About aviation terms	53
<b>Eshimova Sh.K.</b> Koreys va o'zbek tillarida metaforaning lisoniy tahlil masalasi	58
<b>Ibragimova N.A.</b> Diskurs tushunchasi tadqiqidagi asosiy nazariyalar	61
<b>Irgasheva F.B.</b> Badiiy asarlaridagi milliy-madaniy birliklarning tarjimada aks ettirilishida o'ziga xos tamoyillar	65
<b>Jabborov E.</b> Qodir baxshi Rahimov dostonlaridagi antroponik birliklarning lug'aviy qatlamlari	67
<b>Jumaniyozova M.X., Avazova G.K.</b> Komil Avazning antitezadan foydalanish mahorati	70
<b>Jumanova Sh.I.</b> Peyzaj orqali milliylikning namoyon bo'lish shakllari	73
<b>Khairatdinova A.M.</b> The problem of intercultural communication in the work of a translator	77
<b>Khamroeva Sh.M., Matyakubova N.SH.</b> Tabiiy tilni qayta ishlashda alignerning o'rni	79
<b>Kimsanboyeva B., Xudoykulova U.</b> "Devonu lug'oti-t-turk" asarida miqdor ifodalovchi birliklar	82
<b>Komilova N.X.</b> Some questions of translation of author's comparisons	84
<b>Kudratova S.R.</b> Machine translation according to the comparison of google, yandex and collins	86
<b>Kushkarbekova M.U.</b> Navoiy viloyati qozoqlari tilidagi kasbiy leksika	89
<b>Mahmudov R., Alimova N.</b> O'zbek tilidagi afsonaviy qushlar bilan bog'liq mifonimlarning antroposentrik tadqiqi	91
<b>Mamadjanova M.U.</b> Epitet haqida turli qarashlar	95
<b>Matyakubov H.</b> Antroposentrik paradigmda mikrotoponim va makrotoponim tushunchalari talqini	98
<b>Muminova N.A.</b> Amir Temur ismidagi "bek" so'zining lisoniy xususiyatlari	100
<b>Mukhamedova N.A.</b> Ways of modality rendering of atypical interrogative sentences in english language	103
<b>Mustafayeva M.B.</b> Tilshunoslikda modal so'zlarning semantik turlari	104
<b>Nabiyev A.I.</b> The concept of valency in linguistics	107
<b>Nasriyeva G.</b> Analysis of sociological method in the novel "Mehrobdan chayon" by Abdulla Kadiri	110
<b>Nazarov Q.</b> O'zbek va ingliz tillarida inson tana a'zolari bilan bog'liq maqollarning kognitiv-semantik tahlili	112
<b>Nazarova N.A.</b> Onimik leksemalarning o'ziga xos xususiyatlari	115
<b>Nazarova N.B.</b> Ingliz xalq ertaklarida doimiy epitetlarning o'rni	117
<b>Qalandarova D.</b> "O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishlar tahlili	120
<b>Qobilov U.U.</b> Nubuvvat masalasi va uning Navoiy she'riyatida qushlar tamsilidagi talqinlari	122
<b>Qurbonova M.A.</b> Okkazionalizm, neologizm, potensializm hodisasi	125
<b>Ochilova D., Mehmonova D.</b> Tarjima muammolari	127
<b>Olimova D.Z.</b> Mechanism of generating a translation option	129
<b>Rahimbaeva M.D., Kurbaniyazova M.A.</b> O'zbek adabiy matnlarini tarjima jarayonini kognitiv yondashuv asosida o'rganish metodologiyasi	132
<b>Raimova N.B.</b> Place of translation among the means of interlingual communication	135
<b>Rashidova F.</b> Ingliz adibi Charlotta Brontening «Sherli» asarida «ayol va jamiyat» mavzusi aks ettirilishi	137
<b>Razzakov B.A.</b> Linguistic competence as a component of language education non-philological students	139
<b>Ruziyeva N.Z.</b> Evfemizm va sinonimiya munosabati xususida	142
<b>Pulatova S.Sh., Vohidova M.N.</b> The motif of the short story "A marriage of convenience" by Somerset Maugham	144
<b>Saatova S.I.</b> Badiiy matnda yozuvchi lisoniy shaxsining namoyon bo'lishi	147
<b>Sagatova M.P.</b> Linguistic worldview and conceptual metaphor	149

ONIMIK LEKSEMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*N.A.Nazarova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** *Maqolada antroponimlarning tadqiqi va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati yoritilgan; Ayrim tilshunos olimlarning atoqli otlar, ularning semantik xususiyatlari va vazifalari haqidagi mulohazalari ham tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *antropoim, antroponomiya, onomastika, til, madaniyat, tilshunoslik, ot, etimologiya, xususiyat*

**Abstract.** *The article covers the research of anthroponyms and their importance in linguistics; The comments of some linguists about proper nouns, their semantic features and functions are analyzed as well.*

**Key words:** *anthroponym, anthroponomy, onomastics, language, culture, linguistics, nouns, etymology, feature*

**Аннотация.** *Статья посвящена исследованию антропонимов и их значения в языкознании; Анализируются комментарии некоторых лингвистов об именах собственных, их семантических особенностях и функциях.*

**Ключевые слова:** *антропоним, антропонимия, ономастика, язык, культура, языкознание, имена существительные, этимология, особенность*

Til lug'at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblangan antroponimlar morfologik va sintaktik jihatdan ma'lum til normalariga, qonun-qoidalariga ega. Ular qolgan turdosh otlardan konkret shaxs-individual odamni boshqa ko'pchilik odamlardan farqlash bilan ajralib turadilar.

O'zbek tilshunosligiga o'z hissasini qo'shgan olimlarimizdan xususan T.Nafasov, Z.Do'simov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, H.Husanov, X.Doniyorov, A.Otajonov, B.O'rinboyev [1] lar o'zlarining ilmiy izlanishlari va tadqiqot ishlari bilan yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'zbek tilshunosligida mazmunan boy, rang-barang va bir-biri bilan uzviy bog'langan o'ziga xos onomastik tizimdan foydalaniladi. Tilning onomastik boyligi uning leksikasida mujassamlashgan so'zlarga asoslanadi. Bu birliklarning o'ziga xos nomlari onomastika birliklarida "til", "leksik birliklar" va "nutq birliklari" ham deb nomlanadi. Onomastik birlik aslida atoqli otdir.

Ma'lumki, leksema joy yoki shaxs haqida xabar beradigan onimik leksema ma'lum bir ma'noni anglatadi. Bu esa ma'lum va maxsus onomastik vazifaga ega bo'lib, uslubiy, estetik ahamiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Demak, ba'zi bir onomastik birliklar nafaqat bir soha balki bir necha sohada ham shaklan bir xil, mazmunan har xil bo'lgan onimlar, onomastikada omonimiyani vujudga kelishiga o'z hissasini qo'shadi. Jumladan, Navoiy (shahar) – Navoiy (antropoim); Nurafshon (shahar) – Nurafshon (antropoim); Washington(shahar)– Washington (antropoim); Isroil (shahar)-Isroil (antropoim); Madina(shahar)-Madina (antropoim); Osiyo(qit'a)-Osiyo(antropoim);

Apillyativ omonimiya turdosh otlarning onimik leksemalarga o'tganida hosil bo'ladi, masalan: Qo'ysin (antropoim) – qo'ysin (fe'l shakli); Tursin (antropoim) -tursin (fe'l shakli); To'xtasin (antropoim) – to'xtasin (fe'l shakli); Qahramon (antropoim) – qahramon (sifat); Jasur (antropoim) – jasur (sifat); Bahodir (antropoim) -bahodir (sifat); Lola (antropoim) - lola (ot); Charos (antropoim) – charos (ot); Gavhar (antropoim) - gavhar (ot); Binafsha (antropoim)- binafsha (ot); Jayron (antropoim) -jayron (ot) kabilar. Sinonimiya hodisasi onomasiyaga xos xususiyat emas. Ularda ko'p nomlilik (polinomiya) mavjud: Sayxun – Sirdaryo; Shayx ur-Rais-Ibn Sino; Julqunboy-Abdulla Qodiriy; Temurlang/Tamerlan /Oqsoq Temur – Amir Temur; Aleksandr Makedonskiy-Iskandar Zulqarnayn; Xuroson-Turkmaniston; Yettisuv- Qozoqiston kabi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qayd etiladiki, atoqli otlar tilshunoslikda salmoqli o'ringa ega. Ko'rinadiki, o'zbek nomshunosligida o'rganilgan va tahlil qilingan ilmiy ishlarning aksariyati atoqli otlar sistemasiga kiruvchi quyidagi kichik tizimlar ya'ni, ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotopoim va makrotopoimlar, etnonimlarga batafsil tadqiq qilingan.

O'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilmagan yoki kam tahlil qilingan atoqli otlarning ba'zi tiplari alohida o'rinda o'rganilishi joiz bo'lgan dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bular sirasiga badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, laqab va taxalluslar, atoqli otlarning imlosi, amaliy transkripsiya va transliteratsiyasi, kasmonimlar (astronimlar), mifonimlar, agronimlar, nekronimlar, geonimlar, dokumentonimlar, oronimlar, patronimlar, fitonimlar, nomshunoslikning nazariy va amaliy muammolari, jumladan, onomastik leksikografiya masalalari va boshqalar kiradi. Jumladan, ayrim kosmonimlar tahlil qilinganda, ularning ma'nolari tavsifi va stilistik qirralariga ko'pchilik tadqiqotlarda astronomik terminlar tadqiqi jarayonida o'rganilgan va ancha salmoqli ishlar amalga

oshirilgan. Aynan kosmonimlarning lisoniy qirralari adabiy asarlarda tadqiq qilinib, asosan, nomlarning stilistik vazifalari, kontekstdagi ma'nolari tadqiqotning ob'ekti bo'lib xizmat qilgan [2]. O'zbek kosmonimiyasi shakllanishi haqida ba'zi mulohazalar, ayrim kosmonimlarning etimologik va genetik tavsifi haqidagi ma'lumotlar A.Rustamov, S.Qorayev, R.Doniyorov tadqiqotlarida mavjudligi bilan xarakterlanib turadi [3].

O'zbek tilidagi samoviy yoritgich nomlari mikrosistemi misolida lug'aviy mikrosistema markazi va qurshovining o'zgarish yo'llarini asoslash, uning tabiati, tarkibi, tuzilishi va o'zgarishi haqidagi umumiy qonuniyatlarni Z.Yunusova [4] ning nomzodlik dissertatsiyasida batafsil yoritib berilgan. A.Primov [5] tomonidan esa o'zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlari tahlil qilinib, ilk bor monografik tarzda o'zbek onomastikasining tarkibiy qismi bo'lgan kosmonimlar tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'lami yanada kengaydi, ob'ekt turlariga ko'ra guruhlariga ajratilib lisoniy tavsiflandi; neokosmonimlarning lisoniy xususiyatlarini o'rganilib, ularning xalq kosmonimlaridan farqlanuvchi belgilari tizimlashtirildi; kosmonimlarning hosil bo'lish yo'llari, usullari tahlil qilindi; kosmonimlarning atalish motivlariga ko'ra turlari qayd etilib, sohaga oid ba'zi ilmiy terminlarni ilk marotaba nutqda qabul qilindi.

Onomastika sohasi tilshunos, tarixchiva geograflarning atoqli otlarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganib tadqiq qilishi o'zbek tilshunosligida alohida soha sifatida rivojlanishiga sabab bo'ldi. Shuni natijasi o'laroq o'zbek tilidagi atoqli otlar nazariy, tavsifiy, qiyosiy, tarixiy va sinxron yo'nalishda tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, o'zbek onomastikasining ilmiy jihatdan o'ziga xos tadqiqot usullari va tamoyillari ham mavjud. O'zbek nomenklaturasi sohasining paydo bo'lishi va bu sohada ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi onomastika sohasiga oid turli ilmiy tushuncha va g'oyalarni ifodalovchi boy terminologiyaning shakllanishiga asos bo'ldi [6].

O'zbek tilshunosligida o'zbek nomshunosligining alohida o'rini belgilash va uni ahamiyat kasb etish uchun tadqiq jarayonida antroponimlarning har bir tipining (antroponimika – ismshunoslik, toponimika, kosmonimika, zoonimika, teonimika, ktematonimika va b.) ma'no tavsifi va lisoniy qirrasini tahlil qilish, stilistik vazifasi, kontekstdagi ma'nosini yoritish, eng avvalo, ilmiy terminlari tizimini qat'iyalashtirish, unifikatsiyalash lozim. Atoqli ot, ism, nom, joy nomi, geografik nom kabi terminlar bilan cheklanib qolmay, nomshunoslikning har bir tarmog'iga xos terminlarni ham tizimga solish zarurat ekanligi ham inobatga olindi.

Antroponimlarni nazariy jihatdan o'rganilib shunday xulosaga kelindi:

-onimik leksemalar ma'lum bir ma'noni anglatib, ma'lum va maxsus onomastik vazifaga ega bo'lib, uslubiy, estetik ahamiyatni o'zida mujassamlashtiradi;

-antroponimlar xalqning madaniyati haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi vazifasi ham mavjud;

- ba'zi bir onomastik birliklar nafaqat bir soha balki bir necha sohada ham shaklan bir xil, mazmunan har xil bo'lgan onimlar, onomastikada omonimiyani vujudga kelishiga o'z hissasini qo'shadi;

- til lug'at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblangan antroponimlar morfologik va sintaktik jihatdan ma'lum til normalariga, qonun-qoidalariga ega bo'lib, qolgan turdosh otlardan konkret shaxs-individual odamni boshqa ko'pchilik odamlardan farqlash bilan ajralib turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: автореф. дис. канд. филол. наук. Ташкент, 1968; Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988.; Қашқадаре номномаси. – Қарши, 2010.; Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1970.; Муаллифлар жамоаси. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.; Хасанов Х. Жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965.; Караев С. Опыт изучения топонимики Узбекистана: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1969.; Топонимия Узбекистана: социолингвистический аспект. – Тошкент: Фан, 1991.; Населенные пункты (конец XIX – нач. XX в.). – Ташкент: Университет, 2001.; Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 56 б.; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997. – 129 б.; Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – 98 б.

2. Дадабоев Х. Астрономик терминлар тарихидан // Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. – Т.: Фан, 1986. – Б. 94-96.; Бобожонов Ш. Ўзбек тили астрономик терминларини тартибга солиш масалалари бўйича айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. – Т.: Фан, 1986. – Б. 79-80.; Бобожонов Ш. Астрономик атоқли номларни ифодаловчи терминлар хусусида // Ономастика Узбекистана. – Т., 1989. – С. 156-157.; Ёқубов Ш. Алишер Навоий асарларида астрономларнинг ишлатилиши // Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар. IV. – Т., 1992. – Б. 97-98.; Каримов Қ. Буржларнинг туркча номи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1962. – № 1. – Б. 71-73.

3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983. – Б. 152.; Ҳамидов З. “Садди Искандарий” лексикасида самовий тимсоллар // Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. – Т.: Университет, 2002. – Б. 87.; Бакирова И. Навоий асарларида сайёра номлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2008. – № 2. – Б. 128.; Эгамова Ш. Увайсий шеърятда самовий тимсоллар // Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. – Т.: Университет, 2002. – Б. 98-100.; Содиков Қ. Туркий матнавислик тарихидан // Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.: Ёзувчи, 2000. – Б. 185-186.; Дадабаев Х. Астрономические

наименования в старотюркских письменных памятниках XI-XIV вв. // Историко- лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994. – С. 32-43.; Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2007. – Б.76- 79.

4. Юнусова З.Қ. Ўзбек тилида луғавий микросистеманинг таркиби ва ривожланиши (самовий ёритгичлар луғавий гуруҳи асосида). Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т., 2005. – 22 б.

5. Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди дисс. – Т., 2009. – 90 б.

6. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. –Б.264.

UO'K 80

## INGLIZ XALQ ERTAKLARIDA DOIMIY EPITETLARNING O'RNI

*N.B.Nazarova, tayanch doktorant, Samarqand davlat chet tillar institute, Samarqand*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ingliz xalq ertaklarida doimiy epitetlarning qo'llanishi haqida ma'lumot keltirilib, hamda ingliz xalq ertaklarining doimiy epitetlarini, shuningdek, muhim madaniy qiziqish uyg'otadigan ma'lum bir xarakterdagi epitetlarni (ya'ni doimiy birikmalar hosil qilmaydigan) mavzuli guruhlar bo'yicha batafsil tahlil qilingan. Ertak matnida qo'llanilgan doimiy epitetlar xalq madaniyati, turmush tarzi ong va tafakkuriga mutloq bog'liq bo'lib, o'quvchini badiiy matnni yanada chuqurroq anglashi uchun xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Epitet, doimiy epitet, xususiyat, tashqi ko'rinish, xulq-atvor, qahramon.*

**Аннотация.** *В данной статье представлена информация об употреблении постоянных эпитетов в английских народных сказках и дан подробный анализ постоянных эпитетов английских народных сказок, а также эпитетов определенного характера (то есть тех, которые не образуют постоянных составных частей), представляющих значительный культурный интерес. , по тематическим группировкам. Постоянные эпитеты, используемые в сказочном тексте, находятся в абсолютной зависимости от народной культуры, быта, сознания и мышления и служат для более глубокого понимания читателем художественного текста.*

**Ключевые слова:** *Сказка, эпитет, постоянный эпитет, характеристика, внешность, поведение, характер.*

**Abstract.** *This article provides information on the use of permanent epithets in English folk tales and provides a detailed analysis of the permanent epithets of English folk tales, as well as epithets of a certain nature (that is, those that do not form permanent constituents) of significant cultural interest by thematic groupings. The permanent epithets used in the fairy tale text are absolutely dependent on folk culture, life, consciousness and thinking and serve for a deeper understanding of the literary text by the reader.*

**Key words:** *Fairy tale, epithet, permanent epithet, characteristic, appearance, behavior, character.*

Ingliz xalq ertaklari matnlarini o'rganish jarayonida ko'plab doimiy epitetlarni kuzatdik. Doimiy epitetlar deganda ingliz xalq ertaklarining barcha ko'rib chiqilgan to'plamlarida uchraydigan va ma'lum birikuvidan paydo bo'ladigan barqaror birikmalar hosil qiluvchi epitetlarni tushunamiz. Ingliz xalq ertaklarining doimiy epitetlarini, shuningdek, muhim madaniy qiziqish uyg'otadigan ma'lum bir xarakterdagi epitetlarni (ya'ni doimiy birikmalar hosil qilmaydigan) mavzuli guruhlar bo'yicha batafsil tahlil qilish va ularni taqqoslashga harakat qilamiz.

Ertak qahramonlarining tashqi ko'rinishini tavsiflovchi epitetlar guruhi.

Ingliz tili xalq ertaklarida qahramonlarining ko'rinishi ko'pincha bitta xususiyat, bitta yorqin, esda qolarli epitet bilan ifodalanadi. Xushbichimlarning ko'rinishi haqida ko'pincha ular chiroyli (beautiful) va yosh (young) deb aytiladi. Ertaklarda ayol qahramonlarning go'zalligini ifodalovchi epitetlar: *beautiful, fair, young* ;

*Many, many years ago, there lived in a wood close to Waddington a young woman called Jenny Greenteeth (Jeeny Greenteeth);*

*So Merlin chose three of the most beautiful young women in the whole land to be their brides.( The Standing stones).*

Erkaklar xususiy belgilarining ko'rinishini tavsiflovchi epitetlar: *handsome, bunny, fair, strong;*

*The farmer saw that Jack was a good, strong lad, and he set him to work straight away.( The fool in all his glory)*